# XALQ DEPUTATLARI TOSHLOQ TUMANI KENGASHINING
# Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-16-115-11-160-K/25 Toshloq tumani

**Toshloq tumanining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Farg‘ona viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-15-160-11-0-K/25-son qaroriga muvofiq hamda Farg‘ona viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 29-dekabrdagi 01/07-17/10015-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Toshloq tumani Kengashi

**QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Farg‘ona viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-15-160-11-0-K/25-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Toshloq tuman budjetining 2026-yilgi daromadlari 147 171.1 mln.so‘m va xarajatlari esa 147 171.1 mln.so‘mga ma’lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek Toshloq tuman budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 822.0 mln.so‘m etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman budjetidan 2026-yilda mahalliy

budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun 1 802.7 mln.so‘m miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Quyidagilar:

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 3-ilovaga;

jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 $m^2$ uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 4-ilovaga;

ko‘chmas mulk ijara qiymatining 1 kvadrat metri uchun o‘rnatilayotgan minimal miqdorlar 5-ilovaga muvofiq;

noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari) qat’iy belgilangan soliq stavkalari miqdorlar 6-ilovaga muvofiq;

yer usti va yer osti manbalaridan olinadigan suv resurslari uchun soliq stavkalari bir kub metr uchun mutlaq o‘lchamda miqdorlar 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari K.Umarov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (J.Qurbonov), tuman Soliq inspeksiyasi (N.Rustamov) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Mahalliy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, mahalliy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

8. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Toshloq tuman Kengashining Mahalliy budjet tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi M.Meliboyev hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari K.Umarov zimmasiga yuklatilsin.

**Kengash raisi** **DJURABAYEV ABDUKAXXOR ABDUVAXIDOVICH**

Xalq deputatlari Toshloq tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-115-11-160-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**2026-yil uchun Toshloq tuman mahalliy budjeti daromadlarining prognoz ko‘rsatkichlari miqdori**

ming so‘m

| № | Daromad turlari | Toshloq tumani |
|---|---|---|
| **JAMI** | | **147 171 100** |
| 1 | Qo‘shilgan qiymat solig‘i | 3 148 000 |
| 2 | Foyda solig‘i | 2 491 000 |
| 3 | Aylanmadan olinadigan soliq | 9 449 000 |
| 4 | Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i | 54 453 000 |
| 5 | Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan | 1 310 000 |
| 6 | Aksiz solig‘i jami | 5 564 000 |
| | *alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)* | 0 |
| | *pivo* | 0 |
| | *benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i* | 5 564 000 |
| 7 | Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | 6 790 000 |
| 8 | Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i | 12 145 000 |
| 9 | Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i | 13 289 000 |
| 10 | Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i | 28 607 000 |
| 11 | Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq | 451 000 |
| 12 | Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq | 2 041 000 |
| | shundan: Qishloq xo‘jaligi korxonalari bo‘yicha suv solig‘i | 2 895 000 |
| | Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5) | -1 158 000 |

| | | |
|---|---|---|
| 13 | Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar | 0 |
| 14 | Davlat boji | 3 553 100 |
| 15 | Yig‘imlar | 579 000 |
| 16 | Jarimalar | 3 127 000 |
| 17 | Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari | 174 000 |

Xalq deputatlari Toshloq tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-115-11-160-K/25 -son qaroriga
2-ilova

| | | |
|---|---|---|
| | **Xarajatlar - jami** | **147,171,100** |
| **1.** | **Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga xarajatlar** | **66,381,798** |
| **1.1** | **Ta’lim sohasi** | **56,983,273** |
| | Maktabgacha ta’lim tashkilotlari | 29,708,110 |
| | Umumta’lim maktablari | 11,824,548 |
| | Tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi | 6,791,590 |
| | Tuman Barkamol avlod bolalar maktabi | 2,022,380 |
| | Tuman Bolalar musiqa va san’at maktabi | 3,546,645 |
| | “Mening maktabim” loyihasi | 3,090,000 |
| **1.2** | **Madaniyat sohasi** | **2,598,000** |
| | Tuman Madaniyat bo‘limi | 1,662,000 |
| | Tuman Axborot kutubxona markazi | 936,000 |
| **1.3** | **Sport sohasi** | **6,675,303** |
| | Tuman Sport maktabi | 6,675,303 |
| 1.4 | Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi» | 125,222 |
| **2.** | **Iqtisodiyot xarajatlari** | **27,153,244** |
| 2.1 | Obodonlashtirish | 16,631,790 |
| 2.2 | Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarni ta’mirlash xarajatlari | 4,570,294 |
| 2.3 | Suv yetkazib berish xizmati davlat muassasasi | 2,630,192 |
| 2.4 | Fermerlar buxgaltenriyasini saqlash xarajatlari | 391,581 |
| 2.5 | Hayvon kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi Davlat markazi | 435,643 |
| 2.6 | "Mahalla budjeti" jamg‘armasi | 2,493,744 |
| **3.** | **Davlat boshqaruv organlarini saqlash xarajatlari** | **26,206,466** |
| 3.1 | Tuman hokimligi | 6,050,001 |
| 3.2 | Iqtisodiyot va moliya bo‘limi | 2,258,218 |
| 3.3 | Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi | 5,869,369 |
| 3.4 | Oila va xotin-qizlar bo‘limi | 2,446,319 |
| 3.5 | Madaniyat bo‘limi (apparat) | 101,808 |

**Toshloq tuman mahalliy budjetidan 2025-yilgi hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratilgan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari**

ming so‘m

| | | |
|---|---|---|
| 3.6 | Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish markazi | 1,531,038 |
| 3.7 | Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi | 6,157,447 |
| 3.8 | Veterinariya bo‘limi | 1,792,266 |
| **4.** | **Zahira jamg‘armasi** | **1,802,664** |
| **5.** | **Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi** | **25,626,928** |
| **6.** | **Boshqa xarajatlar** | **-** |

Xalq deputatlari Toshloq tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-115-11-160-K/25 -son qaroriga
3-ilova

**Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar**

| T/r | Hudud nomi | Mahalla fuqarolar yig‘ini nomi | Koeffitsient (0,7 dan 3 gacha) | Yer solig‘i stavkasi (ming.so‘m) |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Toshloq tumani | Toshloq | 1,17 | 50 895,0 |
| 2 | Toshloq tumani | Shodlik | 1,17 | 50 895,0 |
| 3 | Toshloq tumani | Suvboshi | 1,17 | 50 895,0 |
| 4 | Toshloq tumani | Furqat | 1,17 | 50 895,0 |
| 5 | Toshloq tumani | Do‘stlik | 1,17 | 50 895,0 |
| 6 | Toshloq tumani | Sadda | 1,17 | 50 895,0 |
| 7 | Toshloq tumani | Teraktagi | 1,17 | 50 895,0 |
| 8 | Toshloq tumani | Konizar | 1,17 | 50 895,0 |
| 9 | Toshloq tumani | Kattako‘cha | 1,17 | 50 895,0 |
| 10 | Toshloq tumani | So‘filar | 1,17 | 50 895,0 |
| 11 | Toshloq tumani | So‘kchilik | 1,17 | 50 895,0 |
| 12 | Toshloq tumani | Qo‘rg‘oncha | 1,17 | 50 895,0 |
| 13 | Toshloq tumani | Xamrak | 1,17 | 50 895,0 |
| 14 | Toshloq tumani | Qamchipurush | 1,17 | 50 895,0 |
| 15 | Toshloq tumani | Piyozchilik | 1,17 | 50 895,0 |
| 16 | Toshloq tumani | Axshak | 1,17 | 50 895,0 |
| 17 | Toshloq tumani | Yakkovut | 1,15 | 50 025,0 |
| 18 | Toshloq tumani | Qanjirg‘a | 1,07 | 46 545,0 |
| 19 | Toshloq tumani | Axshakguzar | 1,07 | 46 545,0 |
| 20 | Toshloq tumani | Tog‘liq | 1,07 | 46 545,0 |
| 21 | Toshloq tumani | Xotinqumi | 1,07 | 46 545,0 |
| 22 | Toshloq tumani | Varzak | 1,07 | 46 545,0 |
| 23 | Toshloq tumani | Qipchoqariq | 1,07 | 46 545,0 |
| 24 | Toshloq tumani | O‘zbekiston | 1,05 | 45 675,0 |
| 25 | Toshloq tumani | Bo‘ston | 0,95 | 41 325,0 |
| 26 | Toshloq tumani | Zarkent | 1,17 | 50 895,0 |
| 27 | Toshloq tumani | Jarqishloq | 1,07 | 46 545,0 |
| 28 | Toshloq tumani | Chuqurqishloq | 1,07 | 46 545,0 |
| 29 | Toshloq tumani | Yangiyo‘l | 1,07 | 46 545,0 |
| 30 | Toshloq tumani | Turvat | 0,97 | 42 195,0 |
| 31 | Toshloq tumani | Yuqoriqishloq | 0,97 | 42 195,0 |
| 32 | Toshloq tumani | Guzarboshi | 1,05 | 45 675,0 |
| 33 | Toshloq tumani | Soybo‘yi | 1,07 | 46 545,0 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 34 | Toshloq tumani | Ucholish | 1,05 | 45 675,0 |
| 35 | Toshloq tumani | Quyi Yakkatut | 1,07 | 46 545,0 |
| 36 | Toshloq tumani | Xo‘jaariq | 0,97 | 42 195,0 |
| 37 | Toshloq tumani | Obisiyo | 1,07 | 46 545,0 |
| 38 | Toshloq tumani | Farog‘at(Ko‘sa) | 0,97 | 42 195,0 |
| 39 | Toshloq tumani | Qum qishloq | 0,97 | 42 195,0 |
| 40 | Toshloq tumani | Qumariq | 0,97 | 42 195,0 |
| 41 | Toshloq tumani | Nayman | 0,97 | 42 195,0 |
| 42 | Toshloq tumani | Chek | 0,97 | 42 195,0 |
| 43 | Toshloq tumani | Istiqlol | 0,97 | 42 195,0 |
| 44 | Toshloq tumani | Nayman bo‘ston | 0,97 | 42 195,0 |
| 45 | Toshloq tumani | Mexnatobod | 0,97 | 42 195,0 |
| 46 | Toshloq tumani | Xonariq | 0,97 | 42 195,0 |
| 47 | Toshloq tumani | Arabmozor | 1,05 | 45 675,0 |
| 48 | Toshloq tumani | Ko‘lariq | 0,97 | 42 195,0 |
| 49 | Toshloq tumani | Xonaqa | 0,97 | 42 195,0 |
| 50 | Toshloq tumani | Aylanmajar | 0,97 | 42 195,0 |
| 51 | Toshloq tumani | Besarang | 0,97 | 42 195,0 |

Xalq deputatlari Toshloq tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-115-11-160-K/25 -son qaroriga
4-ilova

**Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar**

| T/r | Hudud nomi | Mahalla fuqarolar yig‘ini nomi | Koeffitsient (0,7 dan 3 gacha) | Yer solig‘i stavkasi (so‘m) |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Toshloq tumani | Toshloq | 1,16 | 523,0 |
| 2 | Toshloq tumani | Shodlik | 1,16 | 523,0 |
| 3 | Toshloq tumani | Suvboshi | 1,16 | 523,0 |
| 4 | Toshloq tumani | Furqat | 1,16 | 523,0 |
| 5 | Toshloq tumani | Do‘stlik | 1,16 | 523,0 |
| 6 | Toshloq tumani | Sadda | 1,16 | 523,0 |
| 7 | Toshloq tumani | Teraktagi | 1,16 | 523,0 |
| 8 | Toshloq tumani | Konizar | 1,16 | 523,0 |
| 9 | Toshloq tumani | Kattako‘cha | 1,16 | 523,0 |
| 10 | Toshloq tumani | So‘filar | 1,16 | 523,0 |
| 11 | Toshloq tumani | So‘kchilik | 1,16 | 523,0 |
| 12 | Toshloq tumani | Qo‘rg‘oncha | 1,16 | 523,0 |
| 13 | Toshloq tumani | Xamrak | 1,16 | 523,0 |
| 14 | Toshloq tumani | Qamchipurush | 1,16 | 523,0 |
| 15 | Toshloq tumani | Piyozchilik | 1,16 | 523,0 |
| 16 | Toshloq tumani | Axshak | 1,16 | 523,0 |
| 17 | Toshloq tumani | Yakkovut | 1,16 | 523,0 |
| 18 | Toshloq tumani | Qanjirg‘a | 1,06 | 478,0 |
| 19 | Toshloq tumani | Axshakguzar | 1,06 | 478,0 |
| 20 | Toshloq tumani | Tog‘liq | 1,06 | 478,0 |
| 21 | Toshloq tumani | Xotinqumi | 1,06 | 478,0 |
| 22 | Toshloq tumani | Varzak | 1,06 | 478,0 |
| 23 | Toshloq tumani | Qipchoqariq | 1,06 | 478,0 |
| 24 | Toshloq tumani | O‘zbekiston | 1,05 | 474,0 |
| 25 | Toshloq tumani | Bo‘ston | 0,96 | 433,0 |
| 26 | Toshloq tumani | Zarkent | 1,16 | 523,0 |
| 27 | Toshloq tumani | Jarqishloq | 1,06 | 478,0 |
| 28 | Toshloq tumani | Chuqurqishloq | 1,05 | 474,0 |
| 29 | Toshloq tumani | Yangiyo‘l | 1,06 | 478,0 |
| 30 | Toshloq tumani | Turvat | 0,96 | 433,0 |
| 31 | Toshloq tumani | Yuqoriqishloq | 0,96 | 433,0 |
| 32 | Toshloq tumani | Guzarboshi | 1,05 | 474,0 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 33 | Toshloq tumani | Soybo‘yi | 1,06 | 478,0 |
| 34 | Toshloq tumani | Ucholish | 1,05 | 474,0 |
| 35 | Toshloq tumani | Quyi Yakkatut | 1,06 | 478,0 |
| 36 | Toshloq tumani | Xo‘jaariq | 0,96 | 433,0 |
| 37 | Toshloq tumani | Obisiyo | 1,06 | 478,0 |
| 38 | Toshloq tumani | Farog‘at(Ko‘sa) | 0,96 | 433,0 |
| 39 | Toshloq tumani | Qum qishloq | 0,96 | 433,0 |
| 40 | Toshloq tumani | Qumariq | 0,96 | 433,0 |
| 41 | Toshloq tumani | Nayman | 0,96 | 433,0 |
| 42 | Toshloq tumani | Chek | 0,96 | 433,0 |
| 43 | Toshloq tumani | Istiqlol | 0,96 | 433,0 |
| 44 | Toshloq tumani | Nayman bo‘ston | 0,96 | 433,0 |
| 45 | Toshloq tumani | Mehnatobod | 0,96 | 433,0 |
| 46 | Toshloq tumani | Xonariq | 0,96 | 433,0 |
| 47 | Toshloq tumani | Arabmozor | 1,05 | 474,0 |
| 48 | Toshloq tumani | Ko‘lariq | 0,96 | 433,0 |
| 49 | Toshloq tumani | Xonaqa | 0,96 | 433,0 |
| 50 | Toshloq tumani | Aylanmajar | 0,96 | 433,0 |
| 51 | Toshloq tumani | Besarang | 0,96 | 433,0 |

Xalq deputatlari Toshloq tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-115-11-160-K/25 -son qaroriga
5-ilova

**Soliq solish maqsadida qo‘llaniladigan ko‘chmas mulk ijara qiymatining 1 kvadrat metri uchun o‘rnatilayotgan minimal miqdorlar**

so‘mda

| № | Hudud nomi | 2026-yil uchun | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | 1 m.kv turar joylar uchun | | 1 m.kv noturar joylar uchun | |
| | | Koeffitsient | Yakuniy stavkasi | Koeffitsient | Yakuniy stavkasi |
| 1 | Toshloq tumani | 1,05 | 6 195,0 | 1,05 | 12 390,0 |

Xalq deputatlari Toshloq tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-115-11-160-K/25 -son qaroriga
6-ilova

**Noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari) qat’iy belgilangan soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi**

**so‘mda**

| T/r | Hududlar | 2026-yil uchun | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | Qurilish qumi, qumtoshlar, qum-shag‘al aralashmasi | | G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar | |
| | | Koeffitsient | Mutloq qiymat | Koeffitsient | Mutloq qiymat |
| 1 | Toshloq tumani | 1,05 | 5 618,0 | 1,05 | 5 190,0 |

Xalq deputatlari Toshloq tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-115-11-160-K/25 -son qaroriga
7-ilova

**Yer usti va yer osti manbalaridan olinadigan suv resurslari uchun soliq stavkalari bir kub metr uchun mutlaq o‘lchamda quyidagi miqdorlarda belgilanadi**

**So‘mda**

| T/r | Hududlar | 2026-yil uchun | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Iqtisodiyotni barcha tarmoqlari hamda sanoat korxonalari uchun | | | | Alkogolsiz ichimlik-larni hamda pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun | | Avtotransport vositalarini yuvish uchun | |
| | | Yer usti | | Yer osti | | | | | |
| | | Koeffitsient | Stavka | Koeffitsient | Stavka | Koeffitsient | Stavka | Koeffitsient | Stavka |
| 1 | Toshloq tumani | 1,12 | 839,0 | 1,12 | 1 019,0 | 1,07 | 43 506,0 | 1,12 | 17 976,0 |